



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

KICHIK BIZNESGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA SINGAPUR TAJIRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Boltayeva Mohichexra Jamshid qizi

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, Dotsent,DSc

Annotatsiya.

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Singapur tajribasining o‘ziga xos jihatlari va ushbu tajribadan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Singapurning qulay investitsion muhiti, soddalashtirilgan biznes yuritish tartiblari, soliq va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari, innovatsion infratuzilma hamda kichik biznesni xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiya qilish tajribasi o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish, xorijiy kapital ishtirokini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mahalliy tadbirkorlik subyektlarini global bozorga yo‘naltirish masalalari ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada Singapur modelining O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun mos jihatlari aniqlanib, kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xorijiy investitsiyalar, Singapur tajribasi, investitsion muhit, tadbirkorlik, innovatsion infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, O‘zbekiston, xorijiy kapital, biznesni qo‘llab-quvvatlash.

ОПЫТ СИНГАПУРА В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МАЛЫЙ БИЗНЕС И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Болтаева Мохичехра Джамшид кизи

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана,
доцент, доктор наук (DSc)

Аннотация.

В данной статье анализируются особенности опыта Сингапура в привлечении иностранных инвестиций в субъекты малого бизнеса, а также возможности применения данного опыта в условиях Узбекистана. В исследовании рассматриваются благоприятная инвестиционная среда Сингапура, упрощённые процедуры ведения бизнеса, налоговые и финансовые механизмы стимулирования, инновационная инфраструктура, а также практика интеграции малого бизнеса в международные цепочки создания стоимости. Особое внимание уделяется вопросам развития малого бизнеса в Узбекистане, расширения участия иностранного капитала, повышения инвестиционной привлекательности и ориентации местных предпринимательских субъектов на глобальные рынки. В статье определяются адаптируемые элементы сингапурской модели для экономики Узбекистана и разрабатываются практические предложения по совершенствованию механизмов привлечения иностранных инвестиций в малый бизнес.

Ключевые слова: малый бизнес, иностранные инвестиции, опыт Сингапура, инвестиционная среда, предпринимательство, инновационная инфраструктура, экономическое развитие, Узбекистан, иностранный капитал, поддержка бизнеса.

SINGAPORE’S EXPERIENCE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO SMALL BUSINESS AND OPPORTUNITIES FOR ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

Boltayeva Mohichexra Jamshid qizi

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan,
Associate Professor, Doctor of Science (DSc)

Abstract:

This article analyzes the specific features of Singapore’s experience in attracting foreign investment to small business entities and examines the possibilities of applying this experience in the context of Uzbekistan. The study explores Singapore’s favorable investment environment, simplified business procedures, tax and financial incentive mechanisms, innovation infrastructure, and the integration of small businesses into international value chains. Particular attention is paid to the development of small business in Uzbekistan, the expansion of foreign capital participation, the improvement of investment attractiveness, and the orientation of local entrepreneurial entities toward global markets. The article identifies the adaptable aspects of the Singaporean model for Uzbekistan’s economy and develops practical proposals and recommendations for improving mechanisms to attract foreign investment to small business.

Keywords: small business, foreign investment, Singapore experience, investment environment, entrepreneurship, innovation infrastructure, economic development, Uzbekistan, foreign capital, business support.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, bandlik darajasining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi va innovatsion ishlab chiqarishning shakllanishi ko'p jihatdan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Kichik biznes zamonaviy iqtisodiy tizimda nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki bozor muhitida raqobatni kuchaytirish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining daromad manbalarini kengaytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, unga zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va tashqi kapital oqimini jalb qilish masalasi iqtisodiy siyosatning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, xususiyl sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, eksportga yo'naltirilgan korxonalarni rag'batlantirish va hududlarda investitsion loyihalarni kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Bu jarayonlarda tadbirkorlik subyektlarining xorijiy investitsiyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekistonda tadbirkorlik harakati orqaga qaytarib bo'lmaydigan katta kuchga aylandi. Biz davlat miqyosida qanday katta maqsad va vazifalarni o'z oldimizga qo'ymaylik, ularni amalga oshirishda butun xalqimiz bilan birga, avvalo, sizlarga tayanamiz. Tadbirkorlarimiz qancha boy bo'lsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli bo'ladi. Tadbirkorning yutug'i – bu butun xalqimizning yutug'i". Mazkur fikr mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Shunday ekan, kichik biznesni xorijiy investitsiyalar asosida rivojlantirish, uning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish salohiyatini oshirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

Xorijiy investitsiyalar kichik biznes subyektlari uchun nafaqat qo'shimcha moliyaviy manba, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg'or menejment tajribasi, xalqaro marketing yondashuvlari va eksport aloqalarini kengaytirish vositasi hamdir. Shu nuqtayi nazardan, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va ularning samarali mexanizmlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Singapur tajribasi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ushbu davlat qisqa tarixiy davrda qulay investitsion muhit, ochiq iqtisodiyot, samarali davlat boshqaruvi, innovatsion infratuzilma va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi orqali xalqaro kapitalni jalb qilishda yuqori natijalarga erishgan.

Singapur modelining asosiy ustunligi shundaki, unda xorijiy investitsiyalar faqat yirik kompaniyalar faoliyatiga emas, balki kichik va o'rta biznes subyektlarining global ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish zanjirlariga integratsiyalashuviga ham xizmat qiladi. Davlat tomonidan yaratilgan qulay huquqiy muhit, soddalashtirilgan biznes tartiblari, soliq imtiyozlari, innovatsion markazlar, startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va xalqaro hamkorlik mexanizmlari kichik biznesning investitsion jozibadorligini oshirishga yordam beradi. Bunday yondashuv O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, milliy iqtisodiyotda kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarga olib chiqish va xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma loyihalarni kengaytirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur maqolada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Singapur tajribasining o'ziga xos jihatlari, uning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari hamda ushbu tajribadan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda kichik biznesni xorijiy investitsiyalar bilan bog'lash, mahalliy tadbirkorlik subyektlarini xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiya qilish va investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili

Kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda xususiyl sektorni rivojlantirish, bandlikni kengaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va mahalliy

korxonalarni xalqaro bozorga olib chiqishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalar faqat moliyaviy kapital oqimi sifatida emas, balki boshqaruv tajribasi, innovatsion texnologiyalar, xalqaro marketing yondashuvlari va global qiymat zanjirlariga ulanish vositasi sifatida ham baholanadi.

OECD va UNIDO tomonidan tayyorlangan tadqiqotda xorijiy investitsiyalarning kichik va o'rta biznesga ta'siri, avvalo, transmilliy korxonalar bilan mahalliy kichik biznes subyektlari o'rtasidagi aloqalar sifati bilan belgilanadi. Hisobotda qayd etilishicha, FDI mahalliy korxonalarga texnologiya, moliyaviy resurslar va boshqaruv tajribasi orqali "spillover" samarasi berishi mumkin, biroq bu jarayon avtomatik tarzda yuz bermaydi; uning natijadorligi mahalliy kichik biznesning absorbtiv salohiyati, ya'ni yangi bilim va texnologiyalarni qabul qilish qobiliyatiga bog'liq (OECD & UNIDO, 2019). Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham muhim bo'lib, xorijiy investorlarni jalb qilish bilan bir qatorda mahalliy kichik biznes subyektlarining texnologik, tashkiliy va moliyaviy tayyorgarligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Singapur tajribasini o'rgangan Shandre Mugan Thangavelu tadqiqotida mamlakatning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muvaffaqiyati kuchli institutsional muhit, ochiq iqtisodiyot, past soliq yuki, rivojlangan infratuzilma va inson kapitaliga yo'naltirilgan uzoq muddatli siyosat bilan izohlanadi. Muallifning fikricha, Singapur FDI siyosatini sanoat transformatsiyasi bilan uzviy bog'lagan holda olib borgan, natijada xorijiy investitsiyalar mehnat unumdorligi va eksport salohiyatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan (Thangavelu, 2023). Mazkur xulosa kichik biznes uchun ham dolzarbdir, chunki xorijiy kapital mahalliy tadbirkorlik subyektlariga faqat moliyaviy yordam emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish imkonini ham beradi.

Singapur modelining yana bir muhim jihati startup va innovatsion tadbirkorlik ekotizimini qo'llab-quvvatlashdir. Jahon banki tadqiqotida Singapurning startup ekotizimi davlat siyosati, ventur kapital, universitetlar, inkubatorlar, akseleratorlar va texnologik parklar o'rtasidagi o'zaro integratsiya asosida shakllangani ko'rsatiladi. Xususan, davlat tomonidan hammoliyalashtirish mexanizmlari, texnoprenyorlik fondlari va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari xorijiy investorlar va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida barqaror hamkorlikni shakllantirishga xizmat qilgan (World Bank, 2021). Bu tajriba O'zbekiston uchun kichik biznes subyektlarini startaplar, innovatsion klasterlar va texnoparklar orqali xorijiy investitsion muhitga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

UNCTAD tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan hisobotda kichik va o'rta biznes subyektlarining xalqaro investitsion faoliyatdagi o'rni alohida tahlil qilingan. Hisobotda kichik biznes subyektlari xorijiy bozorlarga chiqishda moliyaviy cheklovlar, axborot yetishmasligi, tartibga solishdagi murakkabliklar va investitsiya institutlarining ko'pincha yirik kompaniyalarga yo'naltirilganligi sababli qiyinchiliklarga duch kelishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, kichik biznes ishtirokidagi FDI mahalliy iqtisodiyot uchun foydaliroq bo'lishi mumkin, chunki bunday investorlar mahalliy yetkazib beruvchilar va hamkorlarga ko'proq tayanadi, mahalliy firmalarni siqib chiqarish ehtimoli esa nisbatan past bo'ladi (UNCTAD, 2023). Bu fikr O'zbekistonda xorijiy investorlar bilan kichik biznes o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni kuchaytirish, "FDI-SME linkage" mexanizmini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham kichik biznes va investitsion salohiyat masalalari bo'yicha muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. J.P. Kurbonov o'zining PhD dissertatsiyasi avtoreferatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish masalasini Andijon viloyati misolida tadqiq etgan. Muallif kichik biznesda investitsiya salohiyatini oshirish ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishning muhim omili ekanligini asoslaydi (Kurbanov, 2023). Ushbu qarash mazkur maqola mavzusi uchun muhim, chunki xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hududlarning investitsion salohiyati va kichik biznes infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

A.E. Isakov tadbirkorlik subyektlari faoliyatida investitsiyalardan samarali foydalanish masalasini Namangan viloyati misolida o'rgangan. Tadqiqotda global moliyaviy beqarorlik sharoitida investitsiyalardan samarali foydalanish masalasi tadbirkorlik subyektlari barqarorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida baholanadi (Isakov, 2024). Muallifning ilmiy yondashuvi kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda faqat kapital oqimini ko'paytirish emas, balki undan samarali foydalanish, investitsion loyihalarni iqtisodiy jihatdan asoslash va hududiy imkoniyatlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

B. Abduvohidov esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish masalasini tadqiq etgan. Muallif tadbirkorlik uchun qulay institutsional muhit, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, mulk huquqlarining kafolatlanishi, litsenziyalash va soliq

tizimining soddaligi kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishiga asos bo'lishini ta'kidlaydi (Abduvohidov, 2025). Bu fikr Singapur tajribasi bilan hamohang bo'lib, O'zbekiston sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun, avvalo, biznes yuritish muhitini soddalashtirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va investorlarga ishonchli institutsional sharoit yaratish zarurligini anglatadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda uchta asosiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega: birinchidan, qulay va barqaror institutsional muhit; ikkinchidan, mahalliy kichik biznes subyektlarining texnologik va boshqaruv salohiyati; uchinchidan, xorijiy investorlar bilan mahalliy tadbirkorlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni rivojlantirish. Singapur tajribasi bu omillarning uzviy bog'liqligini amaliy jihatdan namoyon etadi. O'zbekiston uchun ushbu tajribadan foydalanish kichik biznesni xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiya qilish, hududiy investitsion salohiyatni oshirish, startap va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma loyihalarni kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Singapur tajribasini o'rganish va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-tahliliy yondashuv asosiy metodologik asos sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv Singapurda shakllangan investitsion muhit, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xorijiy investorlar bilan mahalliy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik shakllari hamda O'zbekistonda mavjud iqtisodiy-institutsional sharoitlarni o'zaro solishtirish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, institutsional tahlil, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalaniladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali kichik biznes, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit va xalqaro tajriba bo'yicha mavjud nazariy qarashlar o'rganiladi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida Singapur modelining ustun jihatlari O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan yo'nalishlar bilan solishtiriladi. Tizimli yondashuv esa kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillar majmui sifatida baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, UNCTAD, OECD, Enterprise Singapore, Singapur Iqtisodiy taraqqiyot kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari tashkil etadi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy maqolalar, dissertatsiya avtoreferatlari, rasmiy hisobotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar

Kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha Singapur tajribasini O'zbekiston sharoitida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlik faqat kapital oqimini oshirish bilan emas, balki tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror institutsional muhit, rivojlangan moliyaviy infratuzilma, innovatsion ekotizim va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu jihatdan Singapur kichik va o'rta biznesni global iqtisodiyot bilan bog'lashda samarali model yaratgan davlatlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes muhim o'rin tutadi. 2024-yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 753 226,9 mlrd so'mlik qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lib, bu iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 54,3 foizini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi real ulushi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Demak, kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish O'zbekistonda nafaqat alohida tadbirkorlik subyektlarini, balki butun iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida qaralishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025).

Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushini tahlil qilish O'zbekiston sharoitida uning ayrim sohalarda juda yuqori mavqega ega ekanligini ko'rsatadi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari sanoatda 286 675,2 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqargan va bu umumiy sanoat hajmining 32,4 foizini tashkil etgan. Qurilish sohasida kichik biznes ulushi 178 718,9 mlrd so'm yoki 76,5 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 255 883,8 mlrd so'm yoki 51,8 foizga teng bo'lgan. Qishloq xo'jaligida kichik biznesning ulushi 95,2 foizni, chakana savdoda 84,0 foizni, xizmatlar sohasida esa 57,0 foizni tashkil etgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025). Bu ko'rsatkichlar xorijiy investitsiyalarni, avvalo, sanoat kooperatsiyasi, xizmatlar, chakana savdo, qishloq xo'jaligini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va logistika xizmatlariga yo'naltirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi ham kichik biznesni xalqaro kapital bilan bog'lash imkoniyatlarini kengaytiradi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar–mart oylarida O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 33,3 trln so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan. Bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,5 barobar yuqori ko'rsatkichdir. Hududiy tarkibda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitalga investitsiyalardagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida 50,1 foiz, Buxoro viloyatida 45,5 foiz va Qashqadaryo viloyatida 44,0 foizni tashkil etgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024). Bu natija hududlarda xorijiy kapital uchun muayyan investitsion baza shakllanayotganini, ayniqsa erkin iqtisodiy zonalar, sanoat zonolari va infratuzilma loyihalari kichik biznes uchun ham imkoniyat yaratishi mumkinligini ko'rsatadi.

Singapur tajribasi bilan taqqoslaganda, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda investitsion muhitning barqarorligi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Singapur Savdo va sanoat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta korxonalar mamlakatdagi barcha kompaniyalarning 99 foizini, ishchi kuchining 71–72 foizini va yalpi ichki mahsulotning taxminan 47 foizini tashkil etadi (Ministry of Trade and Industry Singapore, 2019; 2023). Demak, Singapurda kichik biznes iqtisodiyotning bandlik va ishlab chiqarish salohiyatini ta'minlovchi asosiy sektor bo'lib, davlat siyosati ushbu sektorni xorijiy kapital, innovatsiya, raqamli texnologiyalar va eksport infratuzilmasi bilan bog'lashga qaratilgan.

Singapur xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham dunyodagi eng faol markazlardan biridir. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Singapurga kirib kelgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 143 352,24 mln AQSh dollarini tashkil etgan. SingStat ma'lumotlariga ko'ra esa, Singapurning korporativ sektoridagi FDI zaxirasi 2024-yil oxirida 3 154 mlrd Singapur dollariga yetgan va yil davomida 10,9 foizga oshgan (UNCTAD, 2025; Singapore Department of Statistics, 2025). Bu ko'rsatkichlar Singapur iqtisodiyotida xorijiy kapitalning tizimli va uzoq muddatli ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Singapore Economic Development Board ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda asosiy kapitalga investitsiya majburiyatlari 13,5 mlrd Singapur dollarini, yillik biznes xarajatlari bo'yicha majburiyatlar esa 8,4 mlrd Singapur dollarini tashkil etgan. Ushbu investitsion majburiyatlar keyingi besh yil davomida 18 700 ta yangi ish o'rni yaratishi va yiliga 23,5 mlrd Singapur dollari miqdorida qo'shilgan qiymat berishi kutilmoqda. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,1 mlrd Singapur dollari ishlab chiqarish sektoriga to'g'ri kelgan, bunda yarimo'tkazgichlar va biotibbiyot ishlab chiqarishi yetakchi yo'nalish sifatida ajralib turgan (Singapore Economic Development Board, 2025). Bu natija Singapurning investitsiyalarni oddiy kapital kiritish emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatli, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga jalb qilish strategiyasiga asoslanganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va Singapur o'rtasida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi bo'yicha muayyan o'xshashlik mavjud. O'zbekistonda kichik biznes yalpi qo'shilgan qiymatning 54,3 foizini yaratsa, Singapurda SME sektori YIMning taxminan 47 foizini shakllantiradi. Biroq farq shundaki, Singapurda kichik biznes yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, raqamli xizmatlar, moliya, logistika, xalqaro savdo va startap ekotizimi bilan kuchli bog'langan. O'zbekistonda esa kichik biznesning katta ulushi qishloq xo'jaligi, chakana savdo, qurilish va xizmatlar sohasida jamlangan. Shuning uchun Singapur tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sektorlararo diversifikatsiya va texnologik modernizatsiya asosiy yo'nalish bo'lishi lozim.

Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston sharoitida Singapur tajribasidan foydalanish uchta yo'nalishda samarali bo'lishi mumkin. Birinchidan, xorijiy investorlar bilan mahalliy kichik biznes subyektlari o'rtasida "FDI–SME linkage" mexanizmini rivojlantirish zarur. Bu yirik xorijiy kompaniyalarning mahalliy yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar va ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsion aloqalarini kuchaytiradi. Ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonolari tarkibida kichik biznes uchun alohida investitsion kooperatsiya maydonlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, kichik biznesning xorijiy investitsiyalarni qabul qilish salohiyatini oshirish uchun biznes-reja tayyorlash, xalqaro standartlar, eksport sertifikatlari, raqamli savdo platformalari va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish lozim.

Shunday qilib, tahlil natijalari Singapur tajribasi O'zbekiston uchun bevosita ko'chiriladigan model emas, balki moslashtirilishi zarur bo'lgan amaliy tajriba ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun eng muhim vazifa kichik biznesning mavjud yuqori iqtisodiy ulushini xorijiy kapital, texnologiya, eksport va innovatsiya bilan bog'lashdan iborat. Aynan shu yondashuv kichik biznesni ichki bozordagi faol subyekt darajasidan xalqaro qiymat zanjirlarining ishtirokchisiga aylantirish imkonini beradi.

Jadval 1. O‘zbekiston va Singapur bo‘yicha asosiy statistik ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Singapur
Kichik biznes / SME sektorining iqtisodiyotdagi ulushi	2024-yilda yalpi qo‘shilgan qiymatning 54,3%	SME sektori YIMning taxminan 47%
Kichik biznes / SME sektorining bandlikdagi o‘rni	Stat.uz ochiq ma’lumotlar bazasida alohida dinamik ko‘rsatkich berilgan	SMElar ishchi kuchining 71–72% ini band qiladi
Xorijiy investitsiyalar	2024-yil I chorakda FDI hisobidan 33,3 trln so‘m , 2023-yil mos davriga nisbatan 2,5 barobar ko‘p	2024-yilda FDI inflows 143,35 mlrd AQSh dollari
FDI zaxirasi	—	2024-yil oxirida korporativ sektorda 3 154 mlrd Singapur dollari , yillik o‘shish 10,9%
Investitsion majburiyatlar	Hududlarda FDI ulushi: Jizzax 50,1% , Buxoro 45,5% , Qashqadaryo 44,0%	2024-yilda FAI 13,5 mlrd S\$, TBE 8,4 mlrd S\$, kutilayotgan ish o‘rni 18 700 ta

Xulosa

Kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, xususiy sektor ulushini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy tadbirkorlik subyektlarini xalqaro bozorga olib chiqishda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi mavjud bo‘lsa-da, uning xorijiy kapital, innovatsion texnologiyalar, xalqaro boshqaruv tajribasi va global qiymat zanjirlari bilan integratsiyalashuvi hali ham tizimli yondashuvni talab qiladi.

Singapur tajribasi kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay institutsional muhit, barqaror huquqiy kafolatlar, soddalashtirilgan biznes yuritish tartiblari, soliq va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari, innovatsion infratuzilma hamda davlat-xususiy sheriklikning samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Singapurda kichik va o‘rta biznesning yirik xorijiy kompaniyalar, texnoparklar, startap ekotizimi va xalqaro investitsion tarmoqlar bilan uzviy bog‘langanligi ushbu modelning asosiy ustun jihatlaridan biridir.

O‘zbekiston sharoitida Singapur tajribasidan foydalanish bevosita ko‘chirish shaklida emas, balki milliy iqtisodiy sharoit, hududiy imkoniyatlar, mavjud tadbirkorlik infratuzilmasi va investitsion siyosat ustuvorliklariga moslashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Bunda, avvalo, xorijiy investorlar bilan mahalliy kichik biznes subyektlari o‘rtasida kooperatsion aloqalarni kuchaytirish, “FDI–SME linkage” mexanizmini shakllantirish, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarida kichik biznes uchun alohida investitsion platformalar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznes sanoat, qurilish, xizmatlar, savdo va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarida katta iqtisodiy salohiyatga ega. Shu bois xorijiy investitsiyalarni aynan ushbu yo‘nalishlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, eksportga yo‘naltirilgan va texnologik modernizatsiyani ta‘minlaydigan loyihalarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalar tayyorlash, biznes-reja ishlab chiqish, xalqaro standartlarga moslashish, raqamli savdo platformalaridan foydalanish va eksport sertifikatlarini olish bo‘yicha salohiyatini oshirish zarur.

Umuman olganda, Singapur tajribasi O‘zbekiston uchun kichik biznesni xalqaro investitsion muhitga integratsiya qilish, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma loyihalarni kengaytirish bo‘yicha muhim amaliy model bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilish uchun institutsional muhitni yanada takomillashtirish, investorlarga xizmat ko‘rsatish tizimini soddalashtirish, hududiy investitsion salohiyatni kuchaytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy tadbirkorlarni xalqaro qiymat zanjirlariga ulash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvohidov, B. (2025). *Ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish* [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

2. Isakov, A. E. (2024). *Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida investitsiyalardan samarali foydalanish: Namangan viloyati misolida* [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. Namangan muhandislik-texnologiya instituti.
3. Kurbonov, J. P. (2023). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari: Andijon viloyati misolida* [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. Namangan muhandislik-texnologiya instituti.
4. Ministry of Trade and Industry Singapore. (2019). *Speech by Minister Chan Chun Sing at the launch of SME Leadership Academy by Google and UOB*. <https://www.mti.gov.sg/newsroom/speech-by-minister-chan-chun-sing-at-the-launch-of-sme-leadership-academy-by-google-and-uob/>
5. Ministry of Trade and Industry Singapore. (2023). *Opening speech by MOS Alvin Tan at Grow with Google for SMEs 2023*. <https://www.mti.gov.sg/newsroom/opening-speech-by-mos-alvin-tan-at-grow-with-google-for-smes-2023/>
6. OECD & UNIDO. (2019). *Integrating Southeast Asian SMEs in global value chains: Enabling linkages with foreign investors*. OECD Publishing.
7. Singapore Department of Statistics. (2025). *Foreign direct investment in Singapore: Latest news and data*. <https://www.singstat.gov.sg/find-data/explore-data/themes/trade-investment/foreign-direct-investment/latest-news-data>
8. Singapore Economic Development Board. (2025). *EDB year 2024 in review*. <https://www.edb.gov.sg/en/about-edb/media-releases-publications/edb-year-2024-in-review.html>
9. Thangavelu, S. M. (2023). *Structural changes and the impact of FDI on Singapore's manufacturing activities*. ERIA Discussion Paper Series.
10. UNCTAD. (2023). *Promoting international investment by small and medium-sized enterprises*. United Nations Conference on Trade and Development.
11. UNCTADstat. (2025). *Singapore country profile*. United Nations Conference on Trade and Development. <https://unctadstat.unctad.org/CountryProfile/GeneralProfile/en-GB/702/index.html>
12. World Bank. (2021). *The evolution and state of Singapore's start-up ecosystem: Lessons for emerging market economies*. World Bank.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston Respublikasi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar*. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/54362-o-zbekiston-respublikasi-bo-yicha-to-g-ridan-to-g-ri-xorijiy-investitsiyalar-3>
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *Kichik biznes va tadbirkorlik statistikasi*. <https://stat.uz/en/official-statistics/small-business-and-entrepreneurship>
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti: press-reviz*. https://stat.uz/img/01_-vvp_press-reviz-2024_uzb_p61471.pdf
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). *Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotdagi nutqi*. <https://president.uz/oz/lists/view/7778>